
Tadbirkorlar bilan uchrashuv o'tkazildi

Bugun Qo'shtepa tumani hokimligining majlislar zalida tadbirkorlar bilan uchrashuv bo'lib o'tdi.

Unda tuman hokimi A.Abdulayev hamda tumanda faoliyat yuritayotgan tadbirkorlar va boshqalar qatnashishdi.

Uchrashuvda 2025 yilda tumanda amalga oshirilayotgan yangi investisiya loyihalari va xorijiy investisiyalarni o'zlashtirish masalalari muhokama qilindi.

Bevosita muloqot tarzida bo'lib o'tgan uchrashuvda tadbirkorlarning taklif va muammolari ham o'rganildi. Shuningdek ularning savollariga tuman rahbari tomonidan batafsil javoblar va tushuntirishlar berildi.

2025-01-18 14:33:01